

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
ISTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B 53.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**SHODMONOVA MUXLISA KOMILOVNA**

**PATOGEN ZAMBURUG‘LARGA QARSHI *BACILLUS* TURKUMIGA  
KIRUVCHI ANTAGONIST BAKTERIYALARNING MOLEKULAR  
GENETIK BIO XILMA-XILLIGINI ANIQLASH**

**03.00.03-Molekulyar biologiya, Molekulyar genetika, Molekulyar biotexnologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Shodmonova Muxlisa Komilovna**

Patogen zamburug‘larga qarshi *Bacillus* turkumiga kiruvchi antagonist bakteriyalarning molekulyar genetik bioxilma-xilligini aniqlash..... 3

**Шодмонова Мухлиса Комиловна**

Определение молекулярно-генетического биоразнообразия антагонистических бактерий рода *Bacillus* против патогенных грибов.....21

**Shodmonova Mukhlisa Komilovna**

Identification of the molecular genetic biodiversity of antagonistic *Bacillus* species against pathogenic fungi..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B 53.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**SHODMONOVA MUXLISA KOMILOVNA**

**PATOGEN ZAMBURUG‘LARGA QARSHI *BACILLUS* TURKUMIGA  
KIRUVCHI ANTAGONIST BAKTERIYALARNING MOLEKULYAR  
GENETIK BIOXILMA-XILLIGINI ANIQLASH**

**03.00.03-Molekulyar biologiya, Molekulyar genetika, Molekulyar biotexnologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B1365 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.genetika.uz](http://www.genetika.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bozorov Tohir Ahmadovich**

biologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Dolimova Dilbar Akbarovna**

biologiya fanlari doktori, professor

**Yakubov Iskandar Taxirovich**

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Mikrobiologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori yuz 266-uy, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (99871) 264-23-90, faks: (99871) 264-23-90, e-mail: [igebr@academy.uz](mailto:igebr@academy.uz), [igebr\\_anruz@mail.ru](mailto:igebr_anruz@mail.ru), [genetika@exat.uz](mailto:genetika@exat.uz) ).

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori yuz 266-uy, Genetika va eksperimental biologiya instituti. Majlislar zali. Tel.: (99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Narimanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q/x.f.d., professor

**I.Dj. Kurbanbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

**I.T.Qahhorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q/x.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyo miqyosida o‘simlik bilan bog‘liq mikroorganizmlar, xususan bakteriyalarning genetik xilma-xilligi va molekulyar asoslarini o‘rganish zamonaviy mikrobiologiya, ekologiya va agrobiotexnologiyaning eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Molekulyar-genetik tadqiqotlar bakteriyalarning genomik tarkibi, mutatsion o‘zgarishlari va funksional markerlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, *Bacillus* avlodi (turkum) ga mansub antagonist bakteriyalarning mutatsion divergensiyasi va genetik markerlar asosida identifikatsiyasi ularning fitopatogenlarga qarshi faolligini aniqlashda ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni o‘rganish biologik kurash vositalari va mikrobial preparatlar yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jahonda ko‘plab olimlar tomonidan o‘simlik fitopatogenlariga qarshi kurashuvchi antagonist bakteriyalarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada *Bacillus* turkumiga mansub bakteriya turlarining tarqalishi, ularning tasnifi, muhitning biotik-abiotik stress sharoitlariga moslashishi, fitopatogen zamburug‘lardan himoya qilish mexanizmlarini o‘rganish, antagonist bakteriya turlarini molekulyar identifikatsiya qilish, antifungal ahamiyatga ega bakteriyalarni biokimyoviy faolligini baholash, bakteriyalarni uzoq muddatga saqlash usullarini optimizatsiya qilish, biologik kurash vositalarini ishlab chiqishda mikroorganizmlardan manba sifatida foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligida o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantiruvchi mikroorganizmlarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasini qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> “kasallik va zararkunandalarga chidamli, turli ekologik muhit sharoitlariga moslasha oladigan navlarni yaratish va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash” bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, qishloq xo‘jaligi sohasida o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi bakteriyalar (Plant Growth-Promoting Bacteria-PGPB) guruhini o‘rganish orqali biologik nazorat agentlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida»gi, hamda 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu biologiya bo‘yicha falsafa doktorlik darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ”Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan. Chunki global ekologik

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

muammolar zamonida o‘simlik fitopatogenlariga qarshi kurashuvchi antagonist bakteriyalardan bionazorat sifatida foydalanish, qishloq xo‘jaligi, sanoat va ishlab chiqarish sohasidagi mavjud muammolarni yechimi sifatida tavsiya etiladi.

**Muommoning o‘rganilganlik darajasi.** Fitopatogen zamburug‘larga qarshi *Bacillus* turkumiga mansub antagonist bakteriyalarning molekulyar-genetik xilma-xilligi va biokimyoviy faolligini o‘rganish bo‘yicha jahon miqyosida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijda (Kaplan D., 2013; Schwartz A. 2013; Geiser D., 2013; Khan N., 2017; Etesami H., 2023; Ayaz M., 2023), MDH mamlakatlarida (Sidlyarevich V.I., 2015; Khassenov B., 2020; Chebotar V.K., 2021) olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarning *Rhizoctonia solani*, *Fusarium* spp. va *Aspergillus* spp. kabi o‘simlik patogen zamburug‘lariga nisbatan antagonistik faolliги hamda ularning biologik nazorat vositasi sifatida qo‘llanish imkoniyatlari keng ko‘lamda o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar bakteriyalarning fermentativ faolliги va patogenlarga qarshi ta’sir mexanizmlarini molekulyar darajada o‘rganishga qaratilgan.

Respublikamizda o‘simlik mikrobiotasi va tuproq bakteriyalarini o‘rganish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Qator tadqiqotchilar (Egamberdiyeva D., 2003; Shurigin V., 2020; Bozorov T., 2021; Davronov Q., 2022; Aytenov I., 2024; Setora Samadiy A., 2024) tomonidan o‘simlik va tuproq bakteriyalari, xususan *Bacillus* turkumi bakteriyalarida stressga chidamlilik xususiyatlari, antagonistlik qobiliyati chuqur tadqiq qilingan.

Ushbu ishlar O‘zbekiston sharoitida o‘simlik mikrobiotasining ekologik va funksional xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini himoya qilishda bakteriyalarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Biroq, O‘zbekistonning turli agroekologik hududlari sharoitida *Bacillus* turkumiga mansub antagonist bakteriyalarning genetik xilma-xilligi, yagona nukleotid polimorfizmi (SNP) tahlili asosida tasniflanishi va ularning fitopatogen zamburug‘larga qarshi bionazorat vosita sifatida qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Bu esa mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlarni amalga oshirish va mahalliy sharoitlarga mos bionazorat strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “FZ-20200929166 O‘simliklar mikrobiotasidan patogen zamburug‘larga qarshi antagonist bakteriyalarni molekulyar aniqlash, ularning ekinlarni himoya qilishdagi o‘rnini tadbiq etish” fundamental loyiha asosida bajarilgan

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekistonning turli agroekologik hududlaridan olingan o‘simlik namunalarida *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarning molekulyar-genetik xilma-xilligi va ularning fitopatogen zamburug‘larga qarshi antagonistlik xususiyatlarini aniqlash hamda qishloq xo‘jaligida bionazorat vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlarini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistonning turli agroekologik hududlaridan olingan o‘simlik (ildiz, poya qismi) namunalaridan *Bacillus* turkumiga mansub bakteriya shtammlarini ajratib olish

va toza kulturalarni kolleksiyaga joylash;

bakterial shtammlardan yuqori sifatli DNK ajratish usullarining samaradorligini aniqlash, molekulyar identifikatsiyasi qilish;

*Bacillus* shtammlarining fitopatogen zamburug'lar (*Rhizoctonia solani*, *Fusarium* spp., *Aspergillus* spp.) ga qarshi *in vitro* sharoitda antagonistlik xususiyatlarini sinovdan o'tkazish;

turli agroekologik hududlardagi bakteriya turlariga boy o'simlik turlarining taksonomik tahlil qilish;

bakteriyalarning genetik o'zgaruvchanligini o'rganish uchun yagona nukleotid polimorfizm tahlilini o'tkazish, filogenetik munosabatlarni aniqlash;

tanlangan shtammlarning morfologik, biokimyoviy va fermentativ xususiyatlarini aniqlash;

antagonist bakteriyalarni bug'doy, no'xat va g'oz o'simliklariga inokulyatsiya qilish, fitopatogen zamburug'larga qarshi himoya samaradorligini (sariq zang, fuzarioz, so'lish kasalliklari) baholash va *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarni qishloq xo'jaligida bionazorat vositasi sifatida qo'llash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonning turli agroekologik hududlaridan olingan o'simlik (ildiz, poya) namunalaridan ajratilgan *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalar va qishloq xo'jaligi ekinlarini zararlovchi fitopatogen zamburug'lar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarning genetik xilma-xilligi, 16S rRNK gen sekvensi, yagona nukleotid polimorfizmi (SNP), biologik faol birikmalar ishlab chiqarish xususiyatlari va fitopatogen zamburug'larga qarshi antagonistlik xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari:** Dissertatsiya tadqiqotlarini bajarishda molekulyar genetikaning an'anaviy usullari, jumladan, genom DNK ajratish ( Fenol-xloroform, CTAB, liyzis, Teagen kit) usuli, PZR tahlili, gel elektroforez, Senger sekvens usuli, shuningdek mikrobiologik, fitopatologik va bioinformatik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarda 16S rRNK genining yagona nukleotid polimorfizmi (SNP) asosida chuqurlashtirilgan tahlil o'tkazilib, *B. velezensis*, *B. atrophaeus*, *B. wiedmannii* va *B. stercoris* turlarida mutatsion o'zgaruvchanlik aniqlangan, hamda ushbu genetik diversifikatsiyaning geografik va ekologik omillar bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

O'zbekistonning turli agroekologik hududlaridan olingan 3328 ta bakteriya izolyatlaridan 432 tasi yuqori antagonist faollikka ega ekani aniqlanib, 16S rRNK genini sekvenslash va SNP-profil tahlili natijasida 26 ta dan ortiq *Bacillus* turlarining taksonomiyasi aniqlangan;

o'simlik to'qimasidan ajratilgan bakteriyalar tarkibida *Bacillus* turkumi dominant guruh ekanligi va tur darajasida *B. safensis*, *B. atrophaeus* va *B. pumilus* eng ko'p uchraydigan turlar sifatida ajratib olingan;

*Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarning *Rhizoctonia solani*, *Fusarium* spp., *Aspergillus* spp. kabi fitopatogen zamburug'larga qarshi *in vitro* sharoitda antagonistlik xususiyatlari tizimli ravishda o'rganilib, 432 ta shtammdan 225 ta *Rh.*

*solani*, 148 ta *F. culmorum*, 14 ta *Aspergillus* spp va boshqa patogenlarga qarshi yuqori ingibitsiya ko'rsatkichlari (60-80%) ga ega ekanligi aniqlangan;

16S rRNK geni asosida amalga oshirilgan filogenetik tahlil *Bacillus* turlarini uchta asosiy kladga ajratish imkonini berdi hamda *B. aerius*, *B. pseudomycooides* va *B. spizizenii* turlarining o'zaro yaqin evolyutsion filogeniyasi ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijasida yuqori fermentativ faollikka ega izolyatlardan proteaza, sellulaza, lipaza, ksilanaza, glyukanaza va sellobiaza kabi sanoat ahamiyatiga ega fermentlarni ishlab chiqaruvchi shtammlar ajratib olingan;

biologik faolligi, molekulyar tavsifi va enzimatik xususiyatlari asosida tanlab olingan bakteriya shtammlari *B. inaquosorum*, *B. mojavensis*, *B. proteolyticus*, *B. safensis*, *B. halotolerans*, *B. atrophaeus* va *B. pumilus* istiqbolli bionazorat vositasi sifatida ta'sir ko'rsatishi isbotlangan;

tanlangan *Bacillus* avlodi bakteriyalarini bug'doy, no'xat va g'oz o'simliklariga inokulyatsiya qilish orqali sariq zang, fuzarioz va so'lish kasalliklariga qarshi 45-50% gacha chidamlilikni oshirish imkoniyati aniqlangan.

#### **Tadqiqotlarning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*Bacillus* turkumiga mansub bakteriya shtammlari (*B. velezensis* 27T16, *B. atrophaeus* 28R2, *B. altitudinis* 31.2R-23, *B. safensis* 29T-3 *B. proteolyticus* 70T-16) *Rhizoctonia solani*, *Fusarium* spp. va *Aspergillus* spp. kabi fitopatogen zamburug'larga qarshi 60-80% ingibitsiya samaradorligi bilan qishloq xo'jaligida kimyoviy pestitsidlarga muqobil sifatida foydalanish uchun istiqbolli bionazorat vositalari sifatida aniqlangan;

*B. mojavensis* 30r-36, *B. cereus* 27r-55, *B. cereus* 31,2R-9, *B. safensis* 66r-19, *B. halotolerans* 1r-42, *B. atrophaeus* 28r-41 va *B. pumilus* 4t-36 bakteriya shtammlarini bug'doy, no'xat va g'oz o'simliklariga inokulyatsiya qilish orqali sariq zang, fuzarioz kasalliklariga qarshi 45-50% gacha chidamlilikni oshirish imkoniyati isbotlanib, O'zbekiston sharoitida ekinlarni himoya qilishda samarali tur sifatida ajratib olingan;

biokimyoviy faolligi yuqori, faol birikma ishlab chiqaruvchi *B. altitudinis* 31r-35, *B. mojavensis* 9r-29, *B. pumilus* 44r-29, *B. safensis* 54t-10, 38t-20, 41r-18, 41r-28, 44t-26, *B. stercoris* 7r-9, *B. tequilensis* 38r-17 bakteriya shtammlari aniqlangan;

bakteriyalardan DNK ajratish uchun fenol:xlороform usuli iqtisodiy samaradorlik va sifat jihatidan eng maqbul ekanligi isbotlanib, O'zbekiston sharoitida molekulyar biologiya tadqiqotlari uchun optimallashtirilgan metodologiya ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarda qo'llanilgan zamonaviy, molekulyar-genetika, mikrobiologik, fitopatologik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, olingan ilmiy natijalar zamonaviy metodologik, statistik usullardan foydalanilgan holda SeqMan dasturi, MEGA12 bioinformatik dastur yordamida tahlil qilinganligi, molekulyar genetik identifikatsiya natijalari xalqaro NCBI GenBank ma'lumotlari bilan BLAST dasturi yordamida taqqoslanganligi hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar bilan asoslanganligi, ilmiy va amaliy tadqiqot natijalarining xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi hamda ilmiy nashrlarda chop qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonning turli agroekologik hududlarida o‘sovchi o‘simlik namunalardan ajratib olingan *Bacillus* shtammlarining yagona nukleotid polimorfizmlari, genetik xilma-xilligi, biokimyoviy faolligi aniqlanganligi va fitopatogen zamburug‘larga nisbatan antagonist faolligi baholanganligi, *B. safensis*, *B. atrophaeus* va *B. pumilus* kabi dominant turlarning tasniflanganligi, shuningdek, *B. velezensis*, *B. atrophaeus*, *B. wiedmannii* va *B. stercoris* turlarida mutatsion o‘zgaruvchanlikning geografik va ekologik omillar bilan bog‘liqligi tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun fitopatogen zamburug‘larga qarshi antagonist xususiyatga ega, o‘simliklarni o‘sishini rag‘batlantiruvchi biofaol moddalar ishlab chiqaruvchi va turli stress muhitlarida o‘simlik o‘sishi uchun qulay yashash muhit yaratuvchi *Bacillus* turkumiga mansub bakteriya shtamm (*B. mojavensis* 30r-36, *B. cereus* 27r-55, *B. cereus* 31,2R-9, *B. safensis* 66r-19, *B. halotolerans* 1r-42, *B. atrophaeus* 28r-41 va *B. pumilus* 4t-36) lari ajratib olinganligi hamda molekulyar biologiya tadqiqotlari uchun samarador bionazorat vositasi sifatida tadqiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Patogen zamburug‘larga qarshi *Bacillus* turkumiga kiruvchi antagonist bakteriyalarning molekulyar genetik bioxilma-xillikni aniqlash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

O‘zbekistonning turli agroekologik hududlaridan ajratib olingan *Bacillus* turkumiga mansub, fitopatogen zamburug‘larga qarshi antagonist xususiyatga ega - *Bacillus cereus*, *Bacillus altitudinis*, *Bacillus mobilis*, *Bacillus thuringiensis* bakteriya izolyatlarining sof kulturalari Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining «Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar» noyob obyekti kolleksiyasi genofondiga topshirilgan (O‘zRFA 2025-yil 20-iyun, №4/1255-1521 son ma‘lumotnomasi). Natijada bakteriya shtammlari kolleksiya genofondini boyitish, bakteriya turlari xilma-xilligidan foydalanish imkonini bergan;

*Bacillus* turkumiga mansub bakteriya izolyatlari 16S rRNK geniga asoslangan tur sekvenslari bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, bakteriya shtammlari xalqaro ma‘lumotlar bazalarida – NCBI (AQSh Milliy Biotexnologiya Axborot Markazi), EMBL-EBI (Yevropa Nukleotid Arxivi, Buyuk Britaniya, Kembridj) va DDBJ (Yaponiya DNK Ma‘lumotlar Bazasi) platformalarida PV653545, PV653526, PV653521, va PV653522 identifikatsiya raqamlari orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan (NCBI – AQSh Milliy Biotexnologiya Axborot Markazi, 19.05.2025-yilgi ma‘lumot; <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nucleotide/PV653545>). Ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida xalqaro ma‘lumotlar bazasi boyitildi va *Bacillus* turlarini global miqyosda tadqiq etish imkoniyati yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirib o'tilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**O'simlik mikroorganizmlarining genetik xilma-xilligi va ularning fitopatogenlarga qarshi kurash mexanizmlari**» deb nomlangan birinchi bobida *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarning kelib chiqishi, 16S rRNK genini sekvenslash va SNP asosida filogenetik tahlillar asosida genetik xilma-xilligini aniqlash haqida bayon etilgan. Fitopatogen zamburug'lar rivojlanishiga ingiberlovchi ta'sir etuvchi antagonist xususiyatiga ega *Bacillus* turkumi bakteriyalar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalarning bionazorat qilishdagi rolini tushinishda ularning biokimyoviy, molekulyar hamda fiziologik ta'sir mexanizmlarini o'rganishga doir ilmiy amaliy natijalar dunyo olimlarining tajribalari, ilmiy ishlari sharhi orqali keltirilgan. Dunyo olimlari tomonidan chop etilgan ko'plab maqolalarining tahlili mazkur ishning asosiy maqsadi va vazifalarining shakllanishida yordam beradi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazilgan sharoit, manbai va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot davomida foydalanilgan ob'ekt, material va tadqiqot usullari keng tavsiflangan. Tadqiqot usullarida asosan tadqiqotimiz uchun tanlab olingan o'simlik namunalaridan kultivirlanadigan bakteriyalarni ajratish va kolleksiyada saqlash, bakterial koloniyalarning ranglanishi va ularni rang intensivligi bo'yicha saralash, bakteriya shtammlaridan DNK ajratish usullarini optimallashtirish asosida DNK ajratish, PZR va gel-elektroforez usullari, shuningdek 16S rRNK genini sekvenslash asosida molekulyar identifikatsiyasi qilish, hamda fitopatologik va biokimyoviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda tadqiqot ishlari olib borilgan. Olingan natijalarni bioinformatik dasturi orqali tahlil qilish va bakteriya namunalarini 16S rRNK genini sekvens natijalarini BLAST dasturi asosida NCBI ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotlar O'zR FA genitika va o'simliklar eksperimental instituti "Bioresurslar va stress biologiyasi" laboratoriyasida olib borilgan.


Dissertatsiyaning «**Fitopatogen zamburug'larga qarshi antagonist xususiyatga ega bakteriya shtammlarining molekulyar-filogenetik tahlili**» nomli uchinchi bobning birinchi bo'limida O'zbekistonning turli hududlaridan yig'ib kelingan o'simlik namunalaridan bakteriya shtammlarini ajratib olish va ularda

morfologik, fitopatologik, biokimyoviy tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida tadqiqot dizayni tuzib olindi. O‘zbekistonning turli muhit va ekologik iqlim hududlari bo‘ylab yig‘ib kelingan o‘simlik namunalari maydalanib ulardan steril sharoitlarda fosfat tuzli buferda inkubatsiya qilinib,  $10^{-7}$  darajagacha suyultirildi. Ozuqaviy agarda hosil bo‘lgan bakterial koloniyalar randomizatsiya usuli orqali tanlab olindi. Tanlab olishda bakteriyalarning morfologik xolati, rangi, hajmi va strukturalariga e’tibor bergan holda tanlangan. Tanlab olingan hamda ajratilgan bakteriya koloniyalarining toza kulturalari kolleksiyada saqlash uchun ozuqaviy agarda ekildi. Toza kulturalar dastlab petri idishlariga 1/24 ta qilib ekib olindi. So‘ngra keying tadqiqotlarda saqlab qo‘yish va ifloslanish xavfini oldini olish maqsadida har bir bakteriya shtammlari uchun alohida petri idishlaridan foydalanildi (1-rasmga qarang). O‘zbekistonning turli agroekologik hududlarida o‘svuchi o‘simlik turlaridan jami 3328 ta bakterial shtammlar, jumladan ildizdan 1896 ta, poyadan 1459 ta namunalar ajratib olindi.




**1-rasm. O‘simlik namunalariidan ajratib olingan toza bakterial kulturalarni morfologik tasviri**

Namunalar koloniya rangining intensivligi bo‘yicha dastlabki statistika olib borildi. Tadqiqot davomida bakteriya shtammlarini patogen zamburug‘larga qarshi antagonist xususiyati o‘rganildi va olingan natijalar asosida statistik tahlil qilindi. Antagonist bakteriya turlarini o‘simlik turlariga nisbatan o‘zaro bog‘liqligini turlar taqsimotini tahlil qilish orqali tushuntirib berildi. Ajratilgan bakterial shtammlar *Rh. solani*, *F. solani*, *F.culmorum*, *F. graminearum*, *F. brachygibbosum*, *F.usarium oxysporum f. sp. vasinfectum*, *As.terreus* va *A.flavus* kabi fitopatogen zamburug‘larga qarshi in vitro sharoitda baholandi. 3328 ta ajratilgan shtammlardan 432 tasi yuqori antagonist faollikka ega ekanligi aniqlandi. Bakteriya izolyatlari orasidan 66R-12,13,29,32;27R-49,51,52,53,54,55,56;42R-13,14,16;27T-18,20;66R-19 va boshqalar o‘simlik patogenlariga qarshi turli darajadagi antagonistlik xususiyatini namoyon qildi (2-rasmga qarang). Umumiy 432 ta antagonist bakteriya izolyatlaridan 225 ta *Rh solani*, 4 ta *As. terreus*, 30 ta *F. solani*, 10 ta *A.flavus*, 99 ta *F. graminearum*, 148 ta *F. culmorum*, 99 ta *FOV*, 32 ta *F. brachygibbosumga* nisbatan antifungallikni namoyon qilgan bakteriyalar qayt etildi.



**2-rasm. Fitopatogen zamburug‘larga qarshi antifungal faollikka ega bakterial izolyatlar**

*B. atrophaeus* 66T1 bakteriya izolyati *F. graminearum* va *F. culmorum* ga qarshi kuchli 80%<; *R. solani* va *F. Solani* ga nisbatan o‘rtacha kuchli ya’ni 70%< ; *A.flavus* ga qarshi 60%< ingibitsiyani namoyon qildi. Shuningdek, *B. velezensis* 27T16 beshta zamburug‘ qo‘zg‘atuvchisi; *F. solani*, *F. graminearum* va *A.flavus* fitopatogen zamburug‘larga qarshi kuchli 80%; *Rh. solani*, *F. culmorum* zamburug‘ turiga qarshi 60-70%< ga qarshi ingibitsiya foizini ko‘rsatdi. *B. atrophaeus* 28R2 izolyati esa to‘rtta (*F. solani*, *F. culmorum*, *F. graminearum* va *A.flavus*) fitopatogen zamburug‘ga qarshi kuchli 80%< mitsilliy o‘shishiga ingiberlovchi antagonistlik qobiliyatini namoyon qildi. To‘rt xil fitopatogen zamburug‘ga nisbatan *B. altitudinis* 31.2R-23 izolyati o‘rtacha (20%-70%); *B. proteolyticus* 70T-16 izolyati (30%-50%); *B. safensis* 29T-3 (50%-80%<) hamda 27R-12 izolyati umumiy hisobda (30%-70%) ingibitsiya foizni ko‘rsatdi. Eng kuchsiz antagonistlik qobiliyati *B. spizizenii* 66t-32 izolyati tomonidan faqat bitta zamburug‘ - *F. culmorum*ga nisbatan 10% ingibitsion ko‘rsatkichni namoyon qildi (3-rasmga qarang).




**3-rasm. Fitopatogen zamburug‘larga qarshi bakterial shtamlarning antifungal faolligini ko‘rsatadigan issiqlik xaritasi**

Sinovdan o‘tkazilgan zamburug‘lar tekshirilganda shunaqa xulosaga kelish mumkinki, *R. solani* bakterial ingibitsiyonga eng ko‘p moyil bo‘lgan, *A. terreus* va *F. solani* esa tolerant bo‘lgan.

Bakteriya shtammlaridan DNK ajratish usullarini optimallashtirish maqsadida to‘rtta usuldan sinov maqsadida foydalanadek. Faol shtamlardan DNK ajratish texnologiyalarini solishtirish orqali fenol:xlороform usuli moddiy samaradorligi va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng maqbul usul sifatida DNK ajratib olindi. Ajratib

olingan bakteriya DNK namunalari universal primerlar 27F(5'AGAGTTTGATCATGGCTCAG-3') va 1492R (5'-TACGGCTACCTTGTTACGACTT-3') (Broderick et al. 2004) yordamida polimeraza zanjir reaksiyasi amalga oshirildi. Polimeraza zanjir reaksiyasi mahsulotlari 1,5% li agaroz gelida kapillyar elektroforez bilan ajratildi va lazer yordamida aniqlandi, bu elektroferogramma iz faylidan ketma-ketlikni qayta tiklashga imkon beradi. Olingan natijalar keyingi tadqiqot ishi uchun xujjatlashtiriladi. Sekvensiya reaksiyalari Sangon Biotech (Shinjan, Xitoy) da Sanger sekvens usuli yordamida amalga oshirildi. Sekvens natijalari DNASTAR Lasergene 7 to'plamidan SeqMan dasturi yordamida tahlil qilindi. Molekulyar identifikatsiya 16S rRNK geni asosida amalga oshirilib, Sekvens fayllarining tozalik va aniqlik darajasi 96-99% atrofida ekanligi qayd etildi. Natijada bakterial shtammlar 3 bo'lim, 7 ta tartib, 10 ta oila, 18 ta turkum va 65 dan ortiq turga mansubligi aniqlandi (4-rasmga qarang).




4-rasm. Bakteriya shtamlarning bo'lim bo'yicha taqsimlanishi

O'rganilgan bakteriyalar orasida eng katta sinf *Bacilli* tashkil etib, *Bacillaceae* oilasini tashkil etgan. Bu oilalar ham o'z navbatida kichik taksonomik birliklarga bo'lingan. Bular orasidan eng ko'p turkum boyligi bilan *Bacillus* (26) turkumi dominantlik qilgan. Turlarni tahlil qilganda esa *B. aerius*-1, *B. altitudinis*-8, *B. amyloliquefaciens*-2, *B. cereus*-4, *B. atrophaeus*-44, *B. halotolerans*-14, *B. haynesii*-4, *B. inaquosorum*-7, *B. mobilis*-1, *B. mojavensis*-5, *B. mycoides*-2, *B. paramycoides*-2, *B. proteolyticus*-12, *B. pseudomycoides*-2, *B. pumilus*-32, *B. safensis*-99, *B. spizizenii*-1, *B. stercoris*-8, *B. subtilis*-3, *B. tequilensis*-15, *B. thuringiensis*-1, *B. toyonensis*-1, *B. velezensis*-4, *B. wiedmannii*-15, *B. xiamenensis*-1, *B. zhangzhouensis*-3 ta namunadan iborat ekanligi aniqlandi. Bunga ko'ra *Bacillus* turkumi vakillari ichidan turning son jihatdan eng katta guruhini *B. safensis* va eng kichik ya'ni bitta shtammdan iborat *B. aerius* turi tashkil etdi.

O'simlik turlariga nisbatan tasniflanganda esa shtammlar 22 ta oila, 40 ta turkum va 50 dan ortiq turga tegishli ekani belgilandi. Antagonist bakteriya turlarining o'simlik turlari bo'yicha taqsimiy tahlili deb nomlanuvchi kichik bo'limda o'simliklar bilan bakteriya o'rtasidagi simbiotik aloqa ularni ajralish ko'rsatkichiga qarab tahlil qilindi. Unga ko'ra, antagonistik bakteriyalarning eng ko'p soni (jami 26 ta) to'qqiz xil bakteriya turini o'z ichiga olgan *S. vvedenskiy* da topilgan. Aksincha, eng kam son - faqat bitta bakterial tur - *B. scoparia* (*B. atrophaeus*), *E. macrocalyx* (*Paenarthrobacter nitroguajacolicus*), *M. neglecta* (*Priestia endophytica*), *Po. Polygamum* (*B. atrophaeus*), *Sophora sp* (*B. altitudinis*) o'simlik turlaridan ajratib

oligan (5-rasmga qarang). *S. vvedenskiy* o‘simligini bakteriya turlariga nisbatan dominantlik qilishi ularning turli abiotik stress sharoitlarida (qurg‘oqchilik, yuqori harorat, sho‘rlanish va hakoza) yashab qolishi bilan bog‘liq deb taxmin qilindi. Eng ko‘p xilma-xil o‘simlik turlari bilan simbiotik aloqaga ega va ularning o‘shini rag‘batlantiruvchi ahamiyatga ega bakteriya turlari ichida *B. safensis* turi ekanligi statistik tahlillar orqali aniqlandi. *B. safensis* eng keng tarqalgan bakterial tur bo‘lib, 27 xil o‘simlik turidan ajratib olingan. O‘n to‘rtta o‘simlik turida boshqalarida uchramaydigan o‘ziga xos bakterial turlari topilgan. (5-rasmga qarang).



**5-rasm. Antagonistik bakteriyalarning o‘simlik turlari va o‘simlik qismlari bo‘yicha taqsimlanishi.**

O‘simlik organlari boylab bakteriyalarni tahlil qilish ildizlardan 280 ta va poyalardan 152 ta izolyatlarni aniqladi, bu ildizlarda antagonistik bakteriyalarning ko‘pligidan dalolat beradi. Antagonistik bakteriyalar orasida umumiy 21 tur, shulardan *Bacillus* turkumiga mansub bakteriyalar 9 tur - *B. aerius*, *B. amyloliquefaciens*, *B. cereus*, *B. haynesii*, *B. mycoides*, *B. subtilis*, *B. thuringiensis*, *B. toyonensis*, *B. xiamenensis* faqat ildizlarda topilgan. Aksincha, 17 tur - shu jumladan *B. cereus*, *B. mobilis*, *B. paramycoides*, *B. spizizenii*, *Cohnella firmus*, *Erwinia persicina*, *Ex. sibiricum*, *Gl. mishrai*, *pl. kocurii*, *Ps. kilonensis*, *Ps. trivialis*, *Ps. viridiflava*, *Psy. alimentarius*, *Ste. chelatiphaga*, *Ste. rhizophila*, *Str. praecox* va *Str. sparsus* - o‘simlikning poya qismida aniqlangan.

O‘simlik turlaridan ajratilgan antagonist bakteriyalarning filogenetik aloqadorligi bo‘limida 16S rRNK geni nukleotidlar ketma-ketligini molekulyar identifikatsiya qilish, bakteriya turlarining filogenetik tahlilini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, eng ko‘p dominant uchta eng katta bo‘lim *Firmicutes*, *Proteobakteriyalar* va *Aktinomisetlar* ekanligi aniqlandi (6-rasmga qarang).



shtammi 79- pozitsiyasida adenin (A) timinga (T), 147- pozitsiyada esa sitozi(C) nukleotidi yana timinga(T) o‘rin almashganligi sabab yagona nukleotid polimorfizmi ro‘y berganligi aniqlandi. Bu esa uchta allelning mavjudligidan dalolat beradi: A,C va T. Maksimum ehtimollik bahosi (MLE) nukleotidlar: adenin (A), timin (T), guanine (G), sitozi (C) o‘rtasidagi mutatsiyaga uchrash ehtimoligini ko‘rsatadi (7-rasmga qarang).

```


73r_1X0    AACCGGGGCTAATACCGGATGGTTGTCTGAACCGCATGGTTCAGACATAAAAGGTGGCTT 174
37r_7X1    AACCGGGGCTAATACCGGATGGTTGTCTGAACCGCATGGTTCAGACATAAAAGGTGGCTT 180
*****
PRIM.CON.S.AACCGGGGCTAATACCGGATGGTTGT2TGAACCGCATGGTTCAGACATAAAAGGTGGCTT

73r_1X0    CCACGAGAGTTTGTAAACACCCGAAGTCGGTGAGGTAACCTTTAGGAGCCAGCCGCCGAA 1434
37r_7X1    CCACGAGAGTTTGTAAACACCCGAAGTCGGTGAGGTAACCTTTAGGAGCCAGCCGCCGAA 1440
*****
PRIM.CON.S.CCACGAGAGTTTGTAAACACCCGAAGTCGGTGAGGTAACCTT2TAGGAGCCAGCCGCCGAA

```

**7-rasm. *B. velezensis* shtammlarida SNP tahlili**

Quyida ko‘rsatilgan har bir qiymat bir nukleotiddan boshqasiga almashinish tezligini ko‘rsatadi ya‘ni bu birlik har bir nukleotidga nisbatan, har bir avlodda (ya‘ni replikasiya siklida) nechta mutatsiya yuz berishini bildiradi (Mutatsiyalar soni / nukleotid / avlod) Azot asoslari bo‘yicha tahlil qilinganda, pirimidin (T/U, S) asoslarining mutatsiyaga uchrash tezligi, purin (A, G) asoslarining mutatsiyaga uchrash ko‘rsatkichiga qaraganda yuqori qiymatga ega. Shungdek, guanidan adenina va adenindan guaninga almashinish tezligi 0,00 ga teng bo‘lib, bunda T(U) va G o‘rtasida nukleotidlar almashinuvi kuzatilmagan. (8-rasmga qarang).



**8-rasm. *B. velezensis* shtammlarida SNP tahlili va MLE asosida baholangan nukleotidlar almashinish matritsasi**

T(U) va A o‘rtasida nukleotidlar almashinish tezligi o‘rtacha T(U) dan A ga 5.83, A dan T(U) ga 4.62 qiymatlariga ega bo‘lishi, ushbu nukleotidlar o‘rtasida mutatsiyaga uchrash ehtimoli borligidan darak beradi.

Quyidagi jadvalda ko‘rinib turibdiki, A nukleotidining T(U) ga mutatsiya ehtimoli ~45.3%, C ga ~54.7%, G ga esa 0%; T(U) nukleotidining C ga o‘zgarishida mutatsiya ehtimoli eng yuqori ~ 68.8%.G ning A ga o‘zgarish ehtimoli esa 0% ga teng. Ushbu tahlillar *B. velezensis* bakteriya shtammlarining filogenetik daraxtni qurishda evolyutsion munosabatlarni baholashda muhim rol o‘ynaydi. Tahlillarga ko‘ra *B. velezensis* 73r-1 va 56t-18 shtammlar bitta kladada joylashgan bo‘lib o‘zaro kelib

chiqish evolyutsiyasi yaqin, 27t-16 hamda 37r-7 shtammlari alohida alohida kladalardan kelib chiqqanligi aniqlandi.

## 1-jadval


### Har bir nukleotidning mutatsion o'zgarish ehtimoli (foizda) asosida umumiy baholash

	A	T(U)	C	G
A	0	45.34	54.66	0
T(U)	13.79	-	68.82	17.3
C	15.63	64.68	-	19.68
G	0	45.34	54.66	-

